

BOLALARDA ATOPIK DERMATIT:SABABLARI, KLINIKASI VA DAVOLASH USULLARI.

Ism familiya: Ergesheva Farangiz Ravshan qizi

O'qish joyi: Alfraganus University

Email: fergasheva07@gmail.com

Annotatsiya-Ushbu maqolada bolalarda keng tarqalgan surunkali allergik teri kasalliklaridan biri- Atopik dermatitning sabablari, etiologiyasi, patogenezi, laborator tekshiruvlar,klinik ko'rinishlari va davolash usullari yoritib berilgan.Maqolada Atopik dermatitni erta aniqlash va kasallikning zamonaviy davolash yondashuvlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zлari:Atopik dermatit, allergik kasalliklar, terining yallig'lanishi, genetik omil, immun tizimi, davolash, klinik belgilar, qichishish, terining qurishi.

Kirish:

Atopik dermatit-bu surunkali allergik teri kasalligi bo'lib,qichishish,teri yallig'lanishi va davriy kuchayishlar bilan kechadi.Odatda hayotining birinchi yilidayoq boshlanadi va yoshga qarab turlicha klinik belgilarga ega bo'ladi.Bu kasallik bolalarda terining allergik shikastlanishlari orasida yetakchi o'rinda turadi.Kasallikga e'tibor va to'g'ri parvarish talab qilinadi.

Kasallikning Etiologiyasi:

Atopik dermatitning rivojlanishiga quyidagi asosiy omillar ishtirok etadi:

1.Genetik moyillik- Ota-onasi yoki yaqin qarimdoshlarda allergik kasalliklar bo'lgan bolalarda atopik dermatit rivojlanish xavfi 60-80 % ga yetadi.

2. Immun tizimining buzilishi-T limfositlar faolligining oshishi, IgE-(ya'ni Immunoglobulin E-organizmda allergik reaksiyalarda asosiy ro'l o'ynaydigan antitana hisoblanadi).IgE darajasining ko'tarilishi va sitokinlar muvozanatining buzilishi kasallikni keltirib chiqaradi.

3.Atrof – muhit omillari - Chang, hayvon juni, sovuq iqlim, oziq-ovqat, allergenlari (sut, tuxum, shokolad) kasallikni kuchaytiradi.

4.Teri to'siq funksiyasining zaiflashuvi-Terining quruqligi, namlik yo'qolishi va mikroblarga oson kirish imkoniyati kasallikning rivojlanishi olib keladi.

5.Psixologik stress- Bolalarda ruhiy holat, uyqu yetishmasligi, stress kasallikni kuchaytiradi.

Kasallikning Patogenezi:

Atopik dermatit patogenezi asosan immun va neyroendokrin mexanizmlar bilan bog'liq.Tashqi allergenlar ta'sirida T-limfositlar faollashadi, IgE ishlab chiqarilishi ortadi va yallig'lanish jarayonlari boshlanadi. Shu bilan birga teri himoya funksiyasi

pasayadi. Natijada; terining quruqligi, yorilishi, ikkilamchi infeksiyalar bilan murakkablanishiga olib keladi.

Klinik belgilari:

1. Emizikli yosh (0-2 yosh):

- Yuzda (peshona, yanoq), bosh terisida qizil, ho‘l toshmalar.

- Teri shishgan , qizargan, qichishadi.

- Bola bezovta bo‘ladi va uyqusi buziladi.

2. Bog‘cha yoshi (2-7 yosh):

- Tirsak, tizza bog‘imlarining bukiluvchi yuzalarida toshmalar bo‘ladi.

- Teri yog‘onlashgan va quruq bo‘ladi.

- Qichishish kuchli, kechasi avj oladi.

3. Maktab yoshi va o‘smirlarda:

- Bo‘yin, qo‘l, oyoq, orqa sohalarida surunkali toshmalar.

- Teri yoriladi, qichiydi, ikkilamchi infeksiyalar qo‘shilishi mumkin.

Laborator tekshiruvlar;

1. Umumiy qon tahlili; Eozinofillarning ko‘payishi kuzatiladi.

2. IgE miqdorini aniqlash; Allergik holatni baholaydi. IgE yuqori bo‘lsa, atopik kasallik ehtimoli katta.

3. Mikroskopiya – Ikkilamchi infeksiyalangan holatlarda, qo‘ziqorin yoki bakterial infeksiyani aniqlash uchun kerak bo‘ladi.

Davolash usullari:

1. Gigiyenik parvarish zarur bo‘ladi. Maxsus sovunlar va shampunlar. Namlantiruvchi kremlar, gellar va malhamlar kuniga 2-3 marta qichishishni kamaytirish va terini namlash uchun vositalar.

2. Dori vositalari; Antigistamin, antiallergik, yallig‘lanishga qarshi va dezintoksikatsion vositalar qo‘llaniladi.

3. Yallig‘lanishni oldini olish uchun dezinfeksiyalovchi va yallig‘lanishga qarshi preparatlar.

Atopik dermatitni oldini olish uchun- Allergenlar bilan aloqadan saqlanish;

Gipoallergen parhezga rioya qilish.

Kiyim- kechak gigiyenasiga rioya qilish zarur.

Uyingizda va xonada chang va hayvon juni kabi allergenlar bo‘lmasligi kerak.

Xonani har kuni namlik va shomollatish rejimi bo‘lishi zarur.

Bola ruhiy holatin saqlash, yetarli uqlash va asabiy holatlardan himoyalash kasallikning avj olishini oldini oladi.

Parhez: Bola sut mahsulotlari, tuxum, shokolad, qizil mevalar, gazli ichimliklar, qadoqlangan ovqatlardan butunlay cheklanish zarur. Emizikli bolalarda-ona o‘zi parhez qilishi zarur, chunki allergenlar ona sutiga o’tadi.

Asoratlari :



Agar Atopik dermatit vaqtida va to‘g‘ri davolanmasa, quyidagi asoratlar rivojlanishi mumkin;

- Teri infeksiyalari; Streptokokk, Stafilokokk infeksiyalari.
- Bronxial astma, allergik rinit.
- Uyqu buzilishi, nevrotik holatlar.

Atopik dermatit ichki organlar bilan bog‘liq jiddiy muomolarga olib kelishi mumkin.Tegishli davolanishsiz bu kasallik asab tizimi, ovqat hazm qilish va nafas yo‘llariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa:

Atopik dermatit bolalar orasida keng tarqalgan, murakkab immun allergik kasallik bo‘lib, erta aniqlansa va to‘g‘ri davolansa, to‘liq nazorat ostiga olinishi mumkin. Teri parvarishiga rioya qilish, allergenlardan himoyalanish va to‘g‘ri davolanish bolaning hayot sifatini sezirarli darajada yaxshilaydi.Atopik dermatitning erta bosqichlarda aniqlanishi yoshga mos klinik belgilarni to‘g‘ri talqin qilish va individual yondashuv asosida davolash choralarini kasallik kechishini yengillashtirish, assoratlarning oldini olish imkonini beradi. Maxsus gipoallergen parhez, gigiyenik parvarish kerak bo‘lganda dorivor terapiyani o‘z ichiga olgan kompleks davolash yondashuvi eng samarali hisoblanadi. Shuningdek, kasallikni nazorat ostida ushlab turish va qaytalanishi oldini olishda oilaviy gigiyena, uy muhitini tozaligi, bolaning ruhiy barqarorligini va to‘g‘ri ovqatlanishi muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamajonova M.M.-“Teri va venerik kasalliklar”.-Toshkent: TTA, 2019.
2. Yuldasheva A.Y. “Allergik kasalliklar klinikasi va davosi”.-Toshkent, 2022.
3. Ibodullaeva Z.M. “Bola Dermatologiyasi”-Toshkent, 2021.
4. Saidova M. “Klinik Dermatologiyasi asoslari”- Toshkent, 2020.
5. Mirzayeva S. Pediatriya amaliyoti- Toshkent: O‘zbekiston Tibbiyot Akademiyasi , 2020.
6. Toirova D.X. “Bolalarda atopik dermatitni zamonaviy davolash yondashuvlari”- Toshkent Pediatriya insituti, 2023.
7. Qodirov M./ Karimova Z.-“Bolalarda keng tarqalgan kasalliklar”. –Toshkent , 2018.